


## **QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2025- yil 1-may holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklari sifatida)*

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### **I. Korxona va tashkilotlarning soni.**

2025- yil 1-may holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 28 824 tani tashkil etadi, shundan 23 554 tasi yoki 81,7 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,0 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 91,9 foizni tashkil etdi.



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).**

Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
<b>2025</b>	28 824	23 726	23 554
<b>2024</b>	30 680	25 778	25 617
<b>2023</b>	37 777	32 989	32 770
<b>2022</b>	38 077	33 247	33 046
<b>2021</b>	33 931	29 164	28 968

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Qarshi shahri – 20,2 foiz, Qarshi – 7,5 foiz, Kitob – 7,1 foiz, Yakkabog' – 7,1 foiz va Koson – 6,6 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiyligi sonidagi salmoqli ulushi Shahrishabz shahri – 85,6 foiz va 85,1 foiz, Qarshi – 84,9 va 84,3 foiz, Qarshi shahri – 84,7 foiz va 83,5 foiz hamda Nishon – 83,0 foiz va 82,7 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
G'uzor	1 433	1 162	1 150
Dehqonobod	1 183	913	908
Qamashi	1 822	1 506	1 503
Qarshi	2 155	1 830	1 817
Koson	1 900	1 531	1 519
Kitob	2 037	1 681	1 672
Mirishkor	1 032	822	820
Muborak	964	799	786
Nishon	1 349	1 119	1 115
Kasbi	1 298	1 070	1 066
Ko'kdala	1 099	861	859
Chiroqchi	1 549	1 227	1 222
Shahrishabz	1 519	1 199	1 195
Yakkabog'	2 037	1 685	1 679
Qarshi shahri	5 811	4 920	4 850
Shahrishabz shahri	1 636	1 401	1 393

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

## Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1-may holatiga 31,7 foizni (38,5 foiz va 38,7 foiz) tashkil etdi.



### Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 14,4 % (17,4 % va 17,5 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,8 % (11,9 % va 11,8 %).

Birgalikda ushbu uch turdag'i faoliyat ularning umumiyligi sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 155	4 122	4 113
Sanoat	2 823	2 818	2 776
Qurilish	1 963	1 942	1 918
Savdo	9 145	9 141	9 105
Tashish va saqlash	746	741	731
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 596	1 587	1 583
Axborot va aloqa	372	362	362
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	983	641	637
Boshqa turlar	7 041	2 372	2 329

## **II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar.**

2025- yil 1-may holatiga ko'ra, 23 726 ta faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalaridan 14 519 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarni tashkil etib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



### **Tadbirkorlik subyektlari**


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	14 519	61,2
Xususiy korxonalar	5 906	24,9
Oilaviy korxonalar	2 964	12,5
Aksiyadorlik jamiyat	33	0,1
Boshqalar	304	1,3

### **III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 149 ta korxonalardan 76 tasi qo'shma korxonalar va 73 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



#### **Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar**

2025- yilning 1-may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p faol korxonalar, sanoat sohasida 60 tani, savdo sohasida 32 tani va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 30 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	149	76	73
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30	10	20
Sanoat	60	28	32
Qurilish	8	6	2
Savdo	32	18	14
Tashish va saqlash	2	1	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	3	-
Axborot va aloqa	-	-	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	3	-
Boshqa turlar	11	7	4

## **Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar.**

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 33 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatimizdagи xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyl sonining 22,1 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qо'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (14,1 %), Turkiya (13,4 %), Avg'oniston (8,1 %) va Janubiy Koreya (4,7 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
<b>Jami:</b>	<b>149</b>	<b>76</b>	<b>73</b>
Xitoy	33	12	21
Rossiya	21	15	6
Turkiya	20	8	12
Afg'oniston	12	4	8
Janubiy Koreya	7	4	3
Qozog'iston	6	4	2
AQSH	5	2	3
Eron	5	4	1
BAA	4	3	1
Niderlandiya	4	-	4
SHveytsariya	4	4	-
Buyuk Britaniya	3	1	2
Hindiston	3	2	1
Pokiston	3	-	3
Germaniya	2	1	1
Tojikiston	2	1	1
Turkmaniston	2	2	-
Boshqa Davlatlar	13	9	4

#### IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar.

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539- son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

##### Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

##### Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'llanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**  
X. Pardayev  
75 221-17-93 (7060)

**Maznil:**  
180100, Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy